

**RENESSANS TA'LIM UNIVERSITETI**

**FILOLOGIYA VA TARIX FAKULTETI**

**“IJTIMOIY-SIYOSIY FANLAR” KAFEDRASI**

**N.Sh.Berdaliyev, N.A.Buranova, Yo.Turopov**

**“O'ZBEKISTON TARIXI” FANIDAN KURS ISHLARINI TAYYORLASH  
BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMA**

**Toshkent – 2024**

Ushbu uslubiy ko‘rsatmada talabalarga O‘zbekiston tarixi fani bo‘yicha kurs ishi yozish va tayyorgarlik ko‘rish boyicha tavsiyalar berilgan bo‘lib, bundan oliy ta‘lim muassasalari talabalari foydalanishi mumkin.

**Tuzuvchilar:**

s.f.d., dotsent N.Sh. Berdaliyev, t.f.n., dotsent N.A.Buranova, katta o‘qituvchi  
Yo.Turopov

**Taqrizchi:**

**B.E.Karshiev.**— Renessans talim univeristeti “Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasida dotsenti.

Filologiya va tarix fakulteti “Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasining 2024-yil “23” oktabrdagi 6-sonli majlisida muhokama qilingan.

Uslubiy ko‘rsatma Renessans ta‘lim universiteti Kengashining 2024-yil “26” oktabrdagi 2-sonli qaroriga muvofiq o‘quv jarayoniga tatbiq etish uchun tavsiya etilgan.

## K I R I S h

Ta'lim tizimidagi islohotlar, eng avvalo, erkin fikrlay oladigan, izlanuvchan, yangilikka intiluvchan shaxs tarbiyasiga qaratilgan. Talabalarning ilmiy–tadqiqot ishlari o‘z navbatida ulardan chuqur mustahkam bilim egallashni talab qiladi.

Mustaqil bilimlarsiz amaliy, o‘quv – tarbiyaviy ishlarga yondoshish mumkin emas. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari avvalo kurs ishlarini bajarish jarayonida shakllanib boradi.

Kurs ishini bajarishda quyidagi vazifalarga ahamiyat berilishi lozim:

- talabalarning izlanishga, tadqiqotchilik faoliyatiga, o‘quv–tarbiyaviy ishlarga ijodiy yondoshishni rivojlantirish;
- mutaxassislikka oid pedagogik–psixologik fanlarga oid o‘quv– tadqiqot ko‘nikma va malakalarni shakllantirish;
- adabiyotlar va boshqa ilmiy manbalarni o‘rganish va tahlil qilish qobiliyatlarini o‘stirish;
- talabalar bilan olib boriladigan ta'lim–tarbiyaviy ishlar, shuningdek mutaxassislik fanlari sohasidagi muammolarni ko‘ra olish va shu sohada ilmiy – tadqiqot ishlari olib borish ko‘nikma va malakalarini egallash;
- o‘z faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil qilishda ilmiy–tadqiqot metodlaridan foydalanishga o‘rganish.

Shu maqsadlarning to‘la-to‘kis amalga oshishi uchun kurs ishitopshiriqlari shunday tuzilishi kerakki, uni bajarish uchun talaba kursning barcha bo‘limlariga, metodik adabiyotlarga, amaliy ish tajribasiga murojaat qilishga to‘g‘ri kelsin.

**Kurs ishi** – bu o‘quv rejasiga kiritilgan biror aniq mavzu bo‘yicha talaba tomonidan tayyorlanadigan, ilmiy-tadqiqot elementlarini o‘z ichiga olgan yozma ishdir. Kurs ishini bajarish Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan “Davlat ta'lim standartlari”da ko‘zda tutilgan. Uni yozish talabalarning fan bo‘yicha olgan bilimlarinichuqurlashtirish va mustahkamlashga, mustaqil ravishda ilmiy-tadqiqot

ishlarini olib borish ko‘nikmasini egallashga, bajargan ilmiy ishlarining natijalarini ijodiy yakunlashni o‘rganishga yordam beradi.

### **KURS ISHINI BAJARISH YuZASIDAN KO‘RSATMALAR**

#### **KURS ISHI QUYIDAGI TARKIBDAN IBORAT BO‘LADI:**

a) titul varag‘i (1-ilovada ko‘rsatilgan); (Jild (titul) varag‘i kurs ishining 1- beti bo‘lib, unda Vazirlik, oliy o‘quv yurtining nomi fakultet va kafedra, kurs ishi mavzusi, ta‘lim yo‘nalishi, kursi, guruxi, muallifning familiyasi, ismi va sharfi, ilmiy raxbarning ilmiy unvoni va darajasi, familiyasi, ismi va sharifi keltiriladi.)

b) mundarija (reja) (2-ilovada ko‘rsatilgan);

v) kirish;

g) asosiy qism (3-4 paragrafdan iborat bo‘lishi mumkin);

d) xulosalar;

ye) foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (Bibliografiya) ( 3-ilovada ko‘rsatilgan);

j) ilovalar (zarurat bo‘lsa). (Ilovada turli xujjatlar, katta xajimdagi chizmalar, jadvallar va shu kabilar beriladi. Kurs ishi yuzasiga taqriz uchun oq qog‘oz qo‘yilishi maqsadga muvofiqdir.)

Saxifa tartib raqami saxifaning pastki (yuqorigi) o‘rta –qismida keltiriladi. Kurs ishida keltirilgan qismlar, shuningdek ilovalar ham saxifalanadi. Jild varag‘i 1- bet sanaladi, unga tartib raqami qo‘yilmaydi.

Kurs ishi talabaning shart-sharoitidan kelib chiqib qo‘l yozma yoki kompyuterda bajariladi.

Agar **KOMPYuTERDA** bo‘lsa - ishning hajmi A4 (297x210 mm) formatdagi qog‘ozga kompyuterda terilgan 25 – 30 betdan iborat bo‘ladi. Betlar soniga ilovalar kiritilmaydi. Qog‘ozga matn 1,5 intervalda, xarflar o‘lchami 14, Times New Roman ning o‘zbekcha variantida qog‘oz chetlarida chapdan 30 mm, tepadan 20 mm, pastdan 20 mm va o‘ngdan 15 mm joy qoldirib teriladi. Kurs ishini

tayyorlash jarayonida foydalanilgan barcha ma'lumot olingan adabiy manbalarga ixtibos (ssылka) qilinishi shart, o'qib xulosa qilingan va fikr berilgan manbalarga iqtibos qo'yilishi shart yemas.

Agar **QO'LYoZMA** bo'lsa -ishasosan A4 (210x297 mm) formatidagi oq qog'ozlarga ko'k tushda (ruchkada) tushunarli tarzda, qisqartirishlarsiz, aniq va ravon tilda o'z qo'li bilan davlat tilida (rus guruxlarda rus tilida) yoziladi. Kurs ishi xajmi 30 -40 betni tashkil yetishi lozim. Har bir saxifani chap tomonda 30 mm, o'ng tomondan 15 mm tepa va pastki tomondan 25 mm qoldirilgan holda yoziladi. Kurs ishi matnlari qog'ozning bir tomoniga har saxifaga 25- 30 qator yoziladi. Har qatorda 7-8 ta so'z yoki 65 pechat belgi joylashishi kerak. Barcha satr osti izohlari qaysi saxifaga tegishli bo'lsa, o'sha saxifada keltiriladi.(snoska kilib beriladi.)

Har bir qism, jurnaldan kirish va xulosa qismlari, ilovalar yangi saxifalardan boshlanadi. Kismning nomi va matn orasi yaqqol ajralib turishi kerak. Kismdagi sarlovxalar qismning tartib raqami bilan boshlanib, unda so'zlarning bo'g'in ko'chirilishiga yo'l qo'yilmaydi. Kurs ishlari davlat standartlari asosida tayyorlanadi va bu talabaning kelgusida ilmiy ishlarini bajarish malaka va ko'nikmalarining to'la shakllanishiga yordam beradi. Rahbarlar tomonidan ko'rib chiqilgan va yozma ravishda xulosalangan kurs ishlari semestrda sinov va imtihonlar sessiyasidan 10 kun oldin kafedraga topshiriladi. Kafedra mudiri kurs ishini taqriz qilishi uchun yetakchi dotsent yoki o'qituvchiga topshiradi.

Taqrizchining taqrizi erkin shaklda tayyorlanadi, unda:

- 1) ishning afzallik jihatlari;
- 2) xatosi va boshqa kamchiliklari;
- 3) ishning qo'yilgan talablarga mosligi;
- 4) himoyaga qo'yilishi yoki qo'yilmasligi ko'rsatib o'tiladi.

Taqrizchi tomonidan ijobiy baholangan kurs ishlari kafedrada himoya qilis'hga tavsiya yetiladi. Dekanat tomonidan belgilangan muddatda talabalar kurs is'hini ochiq himoya qiladilar.

## **Kurs is'hini bajaris'h bosqichlari va uni himoya yetis'h tartibi**

Kurs is'hining asosiy yetaplarini tartiblas'htiris'h maqsadida is'h rejasini bajarilis'h muddatlarini ko'rsatib tuzis'h maqsadga muvofiqdir. Kurs is'hini yozis'hda talaba avvalo rahbarning ko'rsatma va maslahatlariga rioya yetis'hi zarurdir.

Kurs is'hining is'h rejasiga quyidagi yetaplarni kiritis'h mumkin:

1. Mavzuni tanlas'h. Kurs is'hi rejasini tuzis'h va uni tasdiqlash.
2. Adabiyotlarni o'rganib tahlil qilish.
3. kurs ishi rejasini tuzish;
4. ilmiy rahbardan maslahat olish;
5. ishning amaliy tatbiqini o'rganish;
6. ishning birinchi (qora) variantini yozish;
7. ishni ilmiy rahbarga ko'rsatish va uning maslahatlarini olish;
8. ko'rsatilgan kamchiliklarni tuzatish, ishni tahrir qilish va kafedraga kurs ishining tayyor variantini taqdim yetish;
9. Kurs ishi mavzusi yuzasidan ilg'or pedagogik ishlarni o'rganish.
10. Olingan ma'lumotlarni jadval va sxemada ishlab chiqish.
11. Kurs ishi himoyasida kafedra o'qituvchilari ishtirok yetadi.
12. Kurs ishini baholashda har tomonlama bajargan ishlar hisobga olinadi.
13. Kurs ishi rahbari himoya qilingan ishni tahlil qilib, yakunlab beradi.
14. Kurs ishi himoyasi taqdimot shaklida namoyon qilinadi.

Muddatida ulgura olmagan yoki himoya qila olmagan talaba akadem qarzdor deb hisoblanadi.

### **KURS ISHINING TARKIBIY TUZILISHI**

Kurs ishi mavzusi tanlanib, talabaga ilmiy rahbar tasdiqlangandan so'ng, talaba ushbu mavzu bo'yicha adabiyotlar, ilmiy maqolalar, adabiy manbalari, hujjatlarni o'rganishga kirishadi.

To'plagan materiallar asosida ishning to'liq rejasi tuziladi.

Kurs ishi rejasi kirish, asosiy qism (3 tadan 5 tagacha savoldan iborat) xulosa (fikr-mulohaza va takliflardan iborat), foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalarni o'z ichiga oladi.

Savollarning nomi mavzu nomini takrorlamasligi kerak.

1. Kurs ishi titul varag'i yagona nusxa bo'yicha rasmiylashtiriladi (1-ilovaga qarang).
2. Ishning kirish qismida tadqiqotning maqsadi, vazifalari, mavzuning dolzarbligi, ilmiy, amaliy va uslubiy yondashuvi asosi, ishning mazmuni beriladi.
3. Asosiy qismda har bir savolning to'liq mazmunini, statistik ma'lumotlarning iqtisodiy tahlili, qonuniy asoslari, qo'yilgan muammolar bo'yicha iqtisodiy hisob-kitoblar, tashkilot va korxonalarining tajribalari, hozirgi vaqtdagi mavjud muammolar tahlili va ularni bartaraf yetish yo'llari yoritiladi.

Bularning barchasi qo'yilgan talablarga javob berishi, ish ilmiy, aniq, asoslangan xarakterga yega bo'lishi kerak. Har bir savollar qisqa xulosalar bilan tugallanishi kerak.

Kurs ishining asosiy qismi, ish umumiy hajmining 60 % ni tashkil qilishi kerak. Ishda izlanish obektlarining tashkiliy va iqtisodiy tavsifi, boshqaruv sxemalari va ularning bog'liqligi ko'rsatiladi.

Kurs ishining mazmuni mavzu bilan uyg'un bo'lishi kerak. U uch qismdan: Kirish, asosiy qism va xulosadan iborat bo'ladi.

**Kirishda** tanlangan mavzuning dolzarbligi va ahamiyati, ishning maqsad va vazifalari, masalalarining qo'yilishi uning o'ziga xos jihatlari ochib beriladi.

Kurs ishining **asosiy qismida** o'rganilayotgan mavzuning nazariy va amaliy jihatlarini misollar bilan ochib beriladi. Misollar berilganda albatta olingan manba,

ilmiy adabiyotlar yesa havolalarda (snoska) ko'rsatib borilishi, ilmiy apparat izchil ta'minlanishi kerak. Orada turli chizma va jadvallardan foydalanish mumkin.

**Xulosada** o'tkazilgan tadqiqotga qisqacha yakun yasalib, tanlangan kurs ishi mavzusi yo'nalishga muvofiq holda fan rivoji hamda mavzuni amaliyotda qo'llash bo'yicha takliflar bayon yetiladi, ish yuzasidan barcha xulosalar umumlashtiriladi, o'z fikr-mulohazalari bildiriladi, amaliy taklif va tavsiyalar beriladi. Taklif va mulohazalar talabaning o'ziniki bo'lib, u ishda qayd yetilgan takliflarni takrorlamasligi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar** ro'yxatida talaba kurs ishida foydalangan adabiyot va hujjatlarnigina keltirishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxatini berishda hujjatlarni joylashish ketma-ketligi va bibliografik yozuvlarning to'g'ri yozilishiga ahamiyat berish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini tuzishda ularni bir necha guruhlariga bo'lish tavsiya yetiladi. Hujjatlarni va adabiyotlarni guruhlar bo'yicha joylashtirish misoli 2-ilovada ko'rsatilgan.

**Mundarijadagi** sarlavxalar bilan ishning orasidagi sarlavhalarning birxilliliga ye'tibor qaratiladi.

Kurs ishi betlari ketma-ket raqamlanishi kerak, birinchi betning ostida, satr o'rtasiga qo'yiladi.

Eng so'ngida statistik ko'rsatkichlar, jadvallar, sxemalar, diagrammalr ko'rinishida beriladi va ular iqtisodiy tahlil yetiladi, hamda izohlanadi.

Ishda iqtisodiy ko'rsatkichlar bir necha yillar misolida tahlil yetilishi, ular o'zgarishidagi tendensiyalar, qonuniyatlar va sabab oqibat bog'lanishlari ochib berilishi kerak.

Mutaxassislik fanidan kurs ishi o'quv rejaga muvofiq belgilangan kunlari talaba va professor o'qituvchilarning qatnashuvi asosida himoya qilinadi. Har bir guruhning himoyasi maxsus belgilangan sana kuni qabul qilinadi.



## **FOYDALANILGAN ASARLAR KETMA-KETLIGINI YoZIB ChIQISH BO‘YICHA KO‘RSATMA:**

Adabiyotlarni o‘rganishdan oldin yana bir bor mavzuni to‘g‘ri tanlanganligiga ishonch hosil qilish lozim. Talaba adabiyotlarni kurs ishi mavzusi bo‘yicha, unga mos tarzda tanlashi kerak. Ilmiy rahbarning vazifasi talaba tanlagan manbalarni qayta ko‘rib, asosiylarini qoldirishdir.

Manbalarni to‘plashda talaba uning chop yetilgan yiliga ham alohida ye‘tibor berishi lozim. Yeski manbalardan olingan ma‘lumotlar bugungi kundagi dolzarb hisoblangan muammolarni yechishda unchalik ahamiyatli bo‘lmay qoladi.

Talaba bir nechta manbalarni qiyosiy tahlil qilgan holda o‘ziga yeng ma‘qul deb topgan ma‘lumotlarni olgandagina kurs ishi tadqiqoti samarali bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxatiga foydalanilgan manbalar va ilmiy asarlar alifbo tartibi bo‘yicha raqamlanadi. Bosh o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Qonun, Prezident Farmonlari, va Qarorlari va [asarlari](#), me‘yoriy, xujjatlar, keyin yesa ilmiy asarlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalari, jurnal maqolalari, ro‘znomalar va xokazolar kiritiladi.

Kurs ishini yozish jarayonida talaba adabiyotlarida keltirilgan boshqa olim va mutaxassislarning fikrlarini keltirish mumkin. Bunday xollarda matnda ushbu adabiyotlardan foydalanilganlik belgisi qo‘llaniladi.

Ayrim vaqtlarda mavzuga oid qonunlar, xukumat qarorlari va me‘yoriy xujjatlardan aynan ko‘chirmalar keltiriladi. Bunday xollarda satr osti (snoska) izoxi beriladi.

Satr osti izoxlari saxifa so‘ngida berilib, matnda xar bir saxifa uchun ketma – ketlik asosida raqamlanadi yoki yulduzchalar bilan belgilanadi.

Amaldagi “Xujjatlarni bibliografik ro‘yxatga olish” davlat standartiga muvofiq kurs ishlarida foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida quyidagilar keltiriladi:

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident Farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari.
2. Prezident asarlari.
3. Sohaga tegishli me‘yoriy xujjatlar.
4. Sohaga tegishli manbalar va ilmiy asarlar.
5. Qo‘shimcha asarlar.
6. Davriy nashrlar.
7. Internet saytlari.
8. Ilovalar kurs ishining oxirida beriladi. Har bir ilova yangi betdan boshlanadi, sahifaning o‘ng tomonida yuqori burchagida ketma-ket tartib raqamida ilova so‘zi yoziladi. Har qaysi ilovaga sarlavha qo‘yilishi kerak. Ishdagi illustratsiyalar ularning mazmuniga qarab belginaladi.

## **TALABANING VAZIFALARI**

Talaba kurs ishni bajarish jarayonida quyidagilarni bajarishi lozim:

- ishning mavzusini kafedraning talablaridan kelib chiqqan holda tanlash;
- mavzuga oid o‘quv va ilmiy adabiyotlarni va statistik axborotlarni jamlashi;
- ilmiy rahbari bilan kelishilgan holda tuzilgan kurs ishi rejasi asosida berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarishi;
- o‘rnatilgan tartib bo‘yicha kurs ishning hisobotini o‘z vaqtida kafedraga taqdim yetish.

## **KURS ISHINI TEXNIK RASMIYLASHTIRISH.**

Kurs ishi matni kompyuterda lotin yozuvida imloviy xatolarsiz terilib, uning tarkibi mundarija, kirish, ikkita bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘ladi. Har bir bob 3 ta bo‘lim (paragraf)dan iborat bo‘ladi, 1,5 intervalda, Times New Roman shriftda (betlarning barcha tomonlari 2 sm.dan) bo‘lib, ishning 1-bobida mavzu bo‘yicha to‘plangan nazariy ma‘lumotlar, 2-bobida

amaliy-tahliliy ma'lumotlar haqida yoziladi. Ishning betlarida foydalanilgan manba va adabiyotlar havolalari keltirilishi ham kerak.

Har bir varaq 10 mm, oraliqdagi 28-32 qatordan (satr) iborat bo'lishi, har bir satr 60-65 belgidan (tinish belgilar va oraliqlarni qo'shib hisoblaganda) va 3600 so'zdan iborat bo'lishi kerak.

Savollar nomlari asosiy tekstdan oraliqlar bilan ajratiladi (10 mm).

Varaqdagi nomlarni nomerlash pastdan ketma-ketlikka rioya qilgan hoda 3-varaqdan (kirish) boshlab, ya'ni titul varag'i va mundarijadan so'ng.

Agar kurs ishida muallif ishga taalluqli bo'lgan iqtibos(sitata)lardan foydalansa, iqtibos olingan manbaning o'ziga xos xususiyatlari to'liq saqlanishi zarur: orfografiya, punktuatsiya, abzaslar joylanishi, shriftlar ajratilishi. Iqtiboslar matnning ichida berilsa, qoidaga muvofiq holda qo'shtirnoq ichiga olinadi. Iqtiboslarga havolalar matn ichida, satrlardan keyin va matn oxirida, asosan varaqning past qismida chiziqdan keyin berilishi mumkin.

Agar talaba iqtibos (sitata) bo'yicha havolalarni ishning oxirida keltirilgan adabiyotlarga bersa, unda matnda iqtibos kata qavsga olinib, qavsdan so'ng bu adabiyotlarning tartib nomerlari ko'rsatilishi kerak.

Kirish 2-3 bet, xulosa va takliflar 2-3 bet va kamida 20 ta foydalanilgan adabiyotlar berilishi kerak (10 ta adabiyot va 10 ta internet saytlari). Adabiyotlar yangi bo'lishi va prezident asarlaridan foydalanilishi lozim.

Ishning birinchi bobida adabiyotlardan va ikkinchi bobida yasa internet va statistika ma'lumotlaridan foydalaniladi. Ikkinchi bobdagi ko'rsatkichlar oxirgi uch yil, ya'ni 2017, 2018 va 2019-yillarda tahlil qilinishi lozim. Kurs ishining tarkibiga tarjima qilingan xorijiy adabiyotlarning ma'lumoti ham kiritilishi lozim. Kurs ishi tarkibiga 3-5 ta turli rasmlar ham qo'shilishi mumkin.

## KURS ISHINI HIMOYA QILISH TARTIBI

Oliy ta'lim muassasida bakalavriaturaning to'rt yil davomida har bir talaba o'quv rejasiga binoan kamida 4 ta kurs ishi yoki kurs loyihalarini bajaradi. Kurs ishlari talabanning professor-o'qituvchilar rahbarligida bajarilgan mustaqil ishi bo'lganligi uchun uning natijasi, kafedra tomonidan tayinlangan, dekanat tomonidan tasdiqlangan uch kishidan iborat komissiyada, avvaldan belgilangan reja asosida himoya qilinadi.

Kafedra tomonidan berilgan topshiriqqa asosan talaba kurs ishlarini to'liq bajarib, rasmiylashtiradi va kafedraga rasmiy ravishda topshiradi. Shundan so'ng kurs ishi rahbarining ijobiy taqrizi bilan himoyaga qo'yiladi. Kurs ishini himoya qilish kafedra tomonidan tayinlangan komissiyasining ochiq majlisida amalga oshiriladi.

Himoyaning o'tkazilish tartibi quyidalardan iborat:

1. Komissiyaga taqdim yetilgan ish komissiya raisi tomonidan ye'lon qilinadi ye'tirozlar bo'lmasa, muallifga 5-10 daqiqa ishning maqsadi, mohiyati, olingan natija va xulosalarni bayon qilishga ruxsat yetiladi.
2. Himoya vaqtida talaba kurs ishlari materiallaridan, grafik tasvirlari va qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga haqli hisoblanadi.
3. Illustratsiya sifatida talaba oldindan tayyorlangan sxema, jadval, grafik, diagramma, rasmlardan foydalanishi mumkin. Dokladni tugatgach talaba komissiya a'zolarining savollariga javob beradi.
4. Himoya rejada ko'rsatilgan barcha talabalar himoya qilingandan so'ng, komissiya a'zolari holi qolib, bir qarorga kelinadi va reyting tizimiga asosan baholanadi.
5. So'ng himoyachilar, qatnashuvchilarning barchalari taklif yetilib qo'yilgan baholar ye'lon qilinadi.
6. Qoniqarsiz baholanganlar, akademik qarzdor hisoblanib, dekanat belgilangan rejaga asosan yana bir bor himoya qilishlari mumkin.
7. Komissiyaga topshirilgan kurs ishlari rasmiy ravishda kafedraga so'ng

arxivga kamida 5 yil muddatda saqlash uchun topshiriladi.

Kurs ishlari 100 balli tizim asosida baholanadi. Kurs ishini bajarishda 55 balldan kam to'plagan talaba akadem qarzdor hisoblanadi.

### **KURS ISHINI BAHOLASH ME'ZONLARI.**

Kurs ishi himoya natijalari 100 ballik reyting baholash tizimi orqali aniqlanadi.

<b>Baholash ko'rsatkichlari</b>	<b>Baholash mezonlari</b>
60– 69 ball	<ul style="list-style-type: none"><li>- kurs ishining dastlabki himoyasi dalolatnomasi, ilmiy rahbar taqrizi mavjudligi (10-11 ball);</li><li>- kurs ishining rasmiylashtirish talablariga javob berishi (10-11 ball);</li><li>-talaba tomonidan kurs ishining mazmunini ochib berish darajasi (10-11 ball);</li><li>- taqdimotning tayyorlanish holati va undan foydalanish darajasi (10-11 ball):</li><li>- komissiya a'zolari tomonidan berilgan savollarga berilgan javoblar (10-11 ball):</li><li>- kurs ishi mavzusi bo'yicha tarqatma materiallarning mavjudligi va undagi ma'lumotlarning asoslanishi darajasi (3-5 ball);</li><li>- kurs ishi himoyasi uchun belgilangan vaqtdan unumli foydalanganligi(3-5 ball);</li></ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>- kurs ishi himoyasi davomida ta'laba o'z fikrlarini aniq ifodalashi va ravon yetkazib berishi darajasi (4 ball);</li> </ul>
70-89 ball	<ul style="list-style-type: none"> <li>- kurs ishining dastlabki himoyasi dalolatnomasi, ilmiy rahbar taqrizi mavjudligi (12-14 ball);</li> <li>- kurs ishining rasmiylashtirish talablariga javob berishi (12-14 ball);</li> <li>-talaba tomonidan kurs ishining mazmunini ochib berish darajasi (12-14 ball);</li> <li>- taqdimotning tayyorlanish holati va undan foydalanish darajasi (12-14 ball);</li> <li>- komissiya a'zolari tomonidan berilgan savollarga berilgan javoblar (11-14 ball);</li> <li>- kurs ishi mavzusi bo'yicha tarqatma materiallarning mavjudligi va undagi ma'lumotlarning asoslanishi darajasi (3-5 ball);</li> <li>- kurs ishi himoyasi uchun belgilangan vaqtdan unumli foydalanganligi(3-5 ball);</li> <li>- kurs ishi himoyasi davomida ta'laba o'z fikrlarini aniq ifodalashi va ravon yetkazib berishi darajasi (4 ball);</li> <li>-soha rivoji uchun talaba tomonidan ishlab chiqilgan dolzarb g'oya uchun (1-5 ball);</li> </ul>
90-100 ball	<ul style="list-style-type: none"> <li>- kurs ishining dastlabki himoyasi dalolatnomasi, ilmiy rahbar taqrizi mavjudligi (15-16 ball);</li> </ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>- kurs ishining rasmiylashtirish talablariga javob berishi (15-16 ball);</li> <li>-talaba tomonidan kurs ishining mazmunini ochib berish darajasi (15-16 ball);</li> <li>- taqdimotning tayyorlanish holati va undan foydalanish darajasi (15 ball):</li> <li>- komissiya a'zolari tomonidan berilgan savollarga berilgan javoblar (15 ball):</li> <li>- kurs ishi mavzusi bo'yicha tarqatma materiallarning mavjudligi va undagi ma'lumotlarning asoslanishi darajasi (3-5 ball);</li> <li>- kurs ishi himoyasi uchun belgilangan vaqtdan unumli foydalanganligi(3-5 ball);</li> <li>- kurs ishi himoyasi davomida ta'laba o'z fikrlarini aniq ifodalashi va ravon yetkazib berishi darajasi (4 ball);</li> <li>-soha rivoji uchun talaba tomonidan ishlab chiqilgan dolzarb g'oya uchun (3-5 ball);</li> <li>-talabaning jahon iqtisodiyotida bo'layotgan o'zgarishlardan xabardorligi va "nou-xau" yangiliklaridan foydalanish yo'nalishlarini bilishi (3 ball);</li> </ul>
--	---

Kurs ishi natijalari reyting qaydnomalarida rasmiylashtiriladi va komissiya raisi va a'zolari imzosi bilan tasdiqlanadi.

Kurs ishi himoyasida 55 balldan kam ball to'plagan talabalar o'quv rejasida ko'rsatilgan mazkur fandan yakuniy baholashga kirish huquqidan chetlashtiriladi.

## **QUYIDA KO'RSATILGAN HOLLARDA KURS ISHI HIMOYAGA**

### **QO'YILMAYDI:**

- maxsus adabiyotlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, monografiyalar, ilmiy jurnallardagi maqolalar va internet ma'lumotlaridan foydalanmasdan, faqat darslikning o'zidan foydalanib tayyorlangan ishlar;
- darslik, o'quv qo'llanmasi yoki monografiyalardan tayyorlangan konspekt asosida ko'chirib tayyorlangan, foydalanilgan adabiyotlar yoki mualliflar ishlariga ixtibos (ssылka) lar qilinmagan ishlar;
- kurs ishi mavzusining mazmuni yoritib berilmagan va juda qo'pol xatolarga yo'l qo'yilgan ishlar;
- ko'p sondagi grammatik va stilistik xatolari bo'lgan, shuningdek, tartibsiz va noto'g'ri tayyorlangan ishlar. Bunday ishlar talabalarga kamchiliklarini tuzatish uchun qaytarib beriladi. Talaba qaytadan tayyorlangan ishga avvalgi ishning taqrizini ham qo'shib topshiradi, bunda ilmiy rahbar taqrizchi tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklarning to'la tuzatilganligiga ishonch hosil qiladi. Ko'rsatilgan muddatda kurs ishini kafedraga topshirmagan, uzrsiz sabablarga ko'ra kurs ishini himoya qilmagan, himoyada qoniqarsiz baho olgan talabalar akademik qarzdor hisoblanadi va ular kurs ishini qaytadan tayyorlaydilar.

**ESLATMA:** Kurs ishini yozib tugatgach, sarlavhalarning o'zaro bog'lanishiga, bayon usuliga alohida ye'tibor bergan holda, qayta o'qib chiqish kerak. Qayta o'qishda, ko'pincha, ilgari ye'tibordan chetda qolgan xatolarga, asossiz fikrlarga, noto'g'ri misollarga duch kelish mumkin. Ayniqsa, raqamlarni, ko'chirmalarni, bibliografik yozuvlarni birlamchi manba bo'yicha diqqat bilan tekshirib chiqish talab yetiladi. Kurs ishining dastlabki tayyor bo'lgan varianti 1-2 hafta oldin kurs ishi rahbariga ko'rsatiladi. Rahbarning aytgan kamchiliklari aniqlanib, u talaba tomonidan tuzatiladi.

### **O'ZBEKISTON TARIXI FANIDAN KURS ISHI MAVZULARI**

1. Turkistonda sovetlar istibdodniing o'rnatilishi arafasilagi tarixiy vaziyat.
2. Oktabr to'ntarishi. Turkiston o'lkasida sovetlar istibdodining o'rnatilishi.



3. 1917 yilgi fevral burjua inkilobining Turkiston xalqlari taqdiriga ta'siri.
4. Buxoro va Xiva sovetlar bosqini arafasida jadidchilik xarakati. Yosh xivaliklar faoliyati.
5. Turkiston Muxtoriyatining tashkil topishi, faoliyati, Bolsheviklar tomonidan tugatilishi.
6. Xalqqa qarshi "Xarbiy kommunizm" siyosati.
7. Yangi iqtisodiy siyosat va uning ziddiyatlari. Iqtisodiy xayotning jonlanishi.
8. 1917-1920 yillarda madaniyatdagi o'zgarishlar: Turkiston maktablari, oliy ta'limning shakllanishi.
9. O'zbekistonda sovet rejimiga qarshi qurolli xarakat. Istiqlol uchun kurashgan milliy ozodlik kurashi yetakchilari faoliyati (Kichik va katta Yergash, Shermuxammadbek va Madaminbek).
10. O'rta Osiyoda milliy xududiy chegaralanish. O'zbekiston SSRning tashkil yetilishi.
11. Turkistonda sovetlar istibdodiniig o'rnatilishi.
12. O'zbekistonda sanoatlashtirish siyosati va uning mustamlakachilik mohiyati.
13. Turkistondagi 1921-1922 yillardagi yer-suv isloxoti: mazmun va mohiyati.
14. 1920-30 yillarda milliy siyosat va milliy munosabatlar.
15. O'zbekiston 1925-1941 yillardagi ijtimoiy-siyosiy xayotida ommaviy qatag'onlar.
16. O'zbekistonda qishloq xo'jaligini jamoalashtirish va quloqlashtirish jarayoni: oqibatlari va istiqlol uchun kurashgan milliy taraqqiyparvarlar, milliy ziyolilar jasorati.
18. Milliy rahbar kadrlar F. Xo'jaev, A. Ikromov, U. Yusupovlarning hayoti va faoliyati.
19. Turkiston istiqloli uchun kurashgan Axmad Zaki Validiy To'g'onning siyosiy faoliyati.
20. Istiqlol yo'lida milliy rahbar kadrlarniig faoliyati, ayanchli taqdiri va tarixi (xonliklar tugatilishi arafasi va sovet tuzumi davrida)

21. Xiva xonligi va Buxoro amirligining qizil armiya tomonidan tugatilishi. XXSR va BXRning tashkil topishi.
22. BXRning 1921-1924 yillardagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.
23. XXSRning 1921-1924 yillardagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.
24. O'zbekistondagi 1920-30-yillardagi qatag'onliklar.
25. Qatag'onlik siyosati bosqichlari (1920-1980 yillar misolida)
26. 1930 yillarda fan va madaniyat. Xalq ta'limidagi o'zgarishlar - xukmron mafkura izmida.
27. 1920-30 yillarda Qoraqalpog'istondagi o'zgarishlar.
28. Xujum xarakati: oqibatlari
29. Sovet tuzumining o'rnatilishi: Milliy siyosat va milliy munosabatlar.
30. 1920-1930 yillarda O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.
31. Ikkinchi jaxon urushi yillarida O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy, iqtisodiy salohiyatining fashizmga qarshi safarbar qilinishi.
32. O'zbekistonning g'alaba yo'lidagi front ortidagi jasorati, mashaqqatli mehnati, O'zbek xalkining yuksak gumanizmi.
33. O'zbekistonliklarning urush jangohlaridagi jasoratlari.
34. O'zbekiston fani va madaniyati urush davrida
35. Qoraqalpog'iston ACCP urush yillarida.
36. Urushdan keyingi yillarda xalq xo'jaligini tiklashdagi qiyinchiliklar.
37. O'zbekistonda 1950 yillardagi siyosat. Siyosiy qatag'onlar pallasi.
38. Respublika sanoat taraqqiyotining bir tomonlama rivojlantirilishi.
39. Agrar tanglikning keskinlashuvi. Paxta yakkaxokimligi va uning oqibatlari.
40. Orol fojeasi: uning globallashuvi.
41. Qayta qurish yillarida O'zbekiston.
42. 1980-yillarda O'zbekistonda fan va madaniyat. Maorif va Oliy ta'lim.
43. 1930-80-yillarda O'zbekistonda millatlararo munosabatlar.
44. Sho'ro tuzumi inqirozining muqarrarligi, mustaqillik sari yo'l.
45. 1980-yillar oxirida O'zbekistonda demokratik jarayonlarning kuchayishi.
46. 1945-1985 yillar O'zbekistonning ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy hayoti.

47. Sh. R. Rashidovniig davlat va jamoat arbobi sifatidagi hayoti va faoliyati.
48. 1980 yillarda qatag'onliknng yangi bosqichi. Paxta muammosi bo'xroni.
49. O'zbekistonda sotsializmni isloh qilishga urinish: "Kayta qurish" siyosati.
50. 1980-yillar oxiri 90-yillarning boshida ijtimoiy siyosiy hayotning demokratlashuvi. Mustabid tuzum inqirozining muqarrarligi.
51. Sovet mustabid tuzumi davrida Turkistondagi ocharchilik va uning fojealari.

*NAMUNA*

*1-ILOVA*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**RENESSANS TA‘LIM UNIVERSITETI**

**“IJTIMOIY-SIYO SIY FANLAR” KAFEDRASI**

**“O‘ZBEKISTON TARIXI” FANIDAN**

Yulchiev Odil Jamolovichning

**KURS ISHI**

**MAVZU: XIVA XONLIGINING DAVLAT BOSHQARUV TARIXI**  
**(MARKAZIY BOSHQARUV MISOLIDA)**

**Bajardi:**

**Ilmiy rahbar: (o‘qituvchi ilmiy darajasi,  
unvoni va F.I.Sh yoziladi)**

**TOSHKENT – 2024**

**MUNDARIJA:**

Kirish.....

**I.BOB. XIVA XONLIGINING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHINING ASOSIY BOSQICHLARI.....betlar**

1.1. Xiva xonligining tashkil topishi va shakllanishining tarixiy-siyosiy shart-sharoitlari.....**betlar**

1.2. Xiva xonligi davlat boshqaruviining rivojlanishida hukmdorlarning roli.....**betlar**

**II BOB. XIVA XONLIGINING DAVLAT BOSHQARUV TIZIMI VA UNING FAOLIYATI.....betlar.**

2.1. Xiva xonligida davlat boshqaruv tartiblari va tizimi.....**betlar**

2.2. Xiva xonligida davlat boshqaruvda oliy va markaziy boshqaruv tizimi vakolatlari..... **betlar**

2.3. Xiva xonligida markaziy boshqaruv tizimidagi mansab va unvonlarning funksiyalari.....**betlar**

**Xulosa.....betlar**

**Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxati.....betlar**

**Ilovalar (agar bo'lsa).....betlar**

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

### **I. Rasmiy materiallar**

#### **1.1. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T: O‘zbekiston, 2023. – 40 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Mulkchilik to‘g‘risida”gi Qonuni. 2003-yil 7-may.

#### **1.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining Qarorlari**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-maydagi “Xalqaro reytinglar va indekslar bilan ishlashda ilmiy salohiyat hamda amaliy faoliyat uyg‘unligini taminlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-246-son [qarori](#).

#### **1.3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoeyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: “O‘zbekiston” 2021. 464-bet

### **II. Monografiyalar, kitoblar, risolalar, ilmiy maqolalar va matbuot nashrlari**

1. Abdukarimov B.A. va boshqalar. Korxonalar iqtisodiyoti. Darslik-T.: Fan, 2005-288 bet.
2. Abdug‘aniev A. “Qishloq xo‘jalik iqtisodiyoti” O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyat jamg‘armasi nashriyati Toshkent, 2004 y, 304 bet.

### **III. Internet ma‘lumotlari**

1. [www.tdiu-makro.narod.ru](http://www.tdiu-makro.narod.ru)

### **IV. Hisobot va ma‘lumotlar**

1. Qashqadaryo viloyati Iqtisodiyot bosh boshqarmasining ma‘lumotlari. 2013-2015 yy.

## **Kurs ishini bajarish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar**

### **ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston tarixi I – jild. I–kitob. Toshkent. 2015 y A‘zamxўjaev S. Turkiiston Muxtoriyati: milliy-demokratik davlatchilik quriliши тажрибаси. - Т.: Маънавият, 2000.
2. Ernazarov Sh. Raxmonov B. O‘zbekiston tarixi. Toshkent. 2022 y Alimova D. Mустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларни талаш сиёсати: тарих шохидлиги ва сабоқлари (1865-1990 йиллар). – Т.: Шарқ, 2000. – 432 б.
3. Sagdullayev A.S O'zbekiston tarixi 1- kitob.Donishmand Ziyο, 2020.Алимова Д., Голованов А., Ўзбекистон совет мустабид тузуми даврида. Сиёсат ва мафкуравий тазйиқ оқибатлари. - Т., 2000.
4. Eshov B.J, Odilov A.A.O'zbekiston tarixi 2- kitob.Donishmand Ziyο, 2020.Darslik Алимова Д.А. ва б. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). - Т.: Шарқ, 2000.
5. Эргашев Қ, Ҳамидов Х. Ўзбекистон тарихи. - Т.: Фафур Фулом, 2018.
6. Файзулла Хўжаев. Бухоро инқилобининг тарихига материаллар. - Т.: Фан, 1997.
7. Жўраев Н., Файзуллаев Т. Ўзбекистонинг янги тарихи, II китоб. - Т.: Шарқ, 2009.
8. Мунаввар Қори Абдурашидхонов. Хотираларимдан. Нашрга тайёрловчи С.Холбоев. - Т.: Шарқ, 2001.
9. Мустафо Чўқай ўғли. Истиклол жаллодлари (1917 йил хотиралари). – Т.: Фафур Фулом, 1992.
10. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Ўзбекистоннинг янги тарихи / Тузувчилар Н.Жўраев, Т. Файзуллаев. Учинчи китоб. – Т.: Шарқ, 2000.
11. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. - Т., 2001.
12. Ражабов Қ.К. Мустақил Туркистон фикри учун мужодалалар. - Т.: Ўзбекистон, 2000.
13. Ражабова Р.Ё. ва б. Ўзбекистон тарихи (1917-1993 й). - Т.: Ўқитувчи, 1994.
14. Сагдуллаев А, Аминов Б, Мавлонов Ў, Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият қуриш тараққиёти. - Т., 2000.
15. Ахмеджанов Г.А. Российская империя в Центральной Азии (История и историография колониальной политики царизма в Туркестане). – Т.: Фан, 1995.
16. Жадидчилик: ислохот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. Тўплам. – Т.: Университет, 1999.
17. Зиёев Ҳ. З. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. – Т.: Шарқ, 1998.

18. Зиёев Ҳ.З. Россиянинг Қозон, Астрахан, Сибир, Қрим, Кавказ ва Туркистонга тажовузи ва ҳукмронлигига қарши курашлар (XVI асрнинг иккинчи ярми - XX аср бошларигача). 6-жилд. – Т.: Янги аср авлоди, 2012.
19. Илҳомов З.А. Қўқон хонлигида ҳарбий ислоҳотлар Педагогик таълим // 2002 йил, 5-сон. Б. 50-52.
20. Илҳомов З.А. Алиқули Амирлашкар // Ўзбекистон тарихи. 1999 йил, 3-сон. Б. 25;
21. Илҳомов З.А. Қўқон хонлиги тарихшунослигининг айрим масалалари (таҳлил ва мулоҳазалар). ТГПУ, 2007.
22. Илҳомов З.А. Қўқон хонлигининг дипломатик алоқалари тарихи (XIX асрнинг 20-30 йиллари). Педагогик таълим, № 6. 2005
23. Илҳомов З.А. Хотираларда жонланган сиймо // Жамият ва бошқарув. 2000 йил, 1-сон. Б. 55-57.
24. Исмаилова Ж.Х. Национально - освободительное движения в Туркестане в начале XX века. Автореф. дисс. ... докт. ист. наук. – Т., 2002, 27 с.
25. Эгамназаров А. Сиз билган Дукчи Эшон. – Т.: Шарқ, 1994.
26. Юнусова Х. 1892-йил Тошкентдаги халқ кўзғолони. – Т., 1998.
27. Шамсиддинов Р. Ўзбекистонда советларнинг кулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Т.: Шарқ, 2001. – 368 б.
28. Шамсиддинов Р., Каримов Ш. Ватан тарихи. (Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида). Учинчи китоб. - Т.: Шарқ, 2010. – 496 б.
29. Шамсутдинов Р. Истиқлол йўлида шаҳид кетганлар. – Т.: Шарқ, 2001.
30. Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожеаси: жамоалаштириш, кулоқлаштириш, сургун. –Т. 2004.
31. Турсунов И.Й. Ўзбекистон маорифчиларининг истиқлол йўлидаги ишлари тарихидан (1917-1939). – Т., 1995.
32. Зиёева Д. Туркистон миллий озодлик ҳаракати. - Т.: Ғафур Ғулом, 2000.